

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

**MAMATQOBILOV SHERALI NORMUMINOVICH**

**KORXONALARNI SAMARALI BOSHQARISHDA MARKETING  
STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.13 – Menejment**

**08.00.11 – Marketing**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on  
economic sciences**

**Mamatqobilov Sherali Normuminovich**

Korxonalarni samarali boshqarishda marketing strategiyalaridan foydalanishni  
takomillashtirish..... 3

**Маматкабилов Шерали Нормуминович**

Совершенствование использования маркетинговых стратегий в  
эффективном управлении предприятиями..... 27

**Mamatkobulov Sherali Normuminovich**

Improving the use of marketing strategies in the effective management of  
enterprises..... 53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

**MAMATQOBILOV SHERALI NORMUMINOVICH**

**KORXONALARNI SAMARALI BOSHQARISHDA MARKETING  
STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.13 – Menejment**

**08.00.11 – Marketing**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Iqt2646 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Allayarov Shamsiddin Amanullayevich  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Raximova Dilfuza Nigmatovna  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xakimov Ziyodulla Axmadovich  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** Toshkent to'qimacilik va engil sanoat instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil "9" 09 soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: tsue@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1734 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-75; faks: (99871) 239-28-75.; e-mail: tsue@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "25" 08 kuni tarqatildi.  
(2025 yil "22" 08 dagi 38 - raqamli restr bayonnomasi).



**G.Q. Abduraxmanova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, i.f.d., professor

**O.D. Djurabayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor

**Sh.Dj. Ergashxodjayeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi  
v.v.b, i.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Rivojlangan davlatlar tajribasidan ma'lumki, korxonalarni samarali boshqarishda zamonaviy marketing strategiyalarini ishlab chiqish, ularni amaliyotda qo'llash orqali korxonalarining faoliyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Dunyo miqyosida iste'molchilarga nisbatan global raqobatning tobora kuchayib borishi sharoitida korxonalarni samarali boshqarishda zamonaviy marketing strategiyalaridan foydalanishga alohida ahamiyat berilmoqda. Jahon miqyosida 2023 yil uchun global iqtisodiyotning COVID-19 pandemiyasidan oldingi prognozga nisbatan qariyb 4,7 trillion dollar defitsit kuzatilgan bo'lib, global iqtisodiyot hali ham COVID-19 ning iqtisodiy ta'siridan to'liq tiklanmagan, va 2025 yilga kelib, YaIM darajasi 2,5 trillion dollardan past bo'lishi prognoz qilinmoqda<sup>1</sup>. Bugungi kunda korxonalarda nafaqat o'zining iqtisodiy rivojlanishini, balki global iqtisodiyotning tiklanish jarayonini ham hisobga olib, iqtisodiy barqaror rivojlanishlari uchun innovatsion yondashuvlar va zamonaviy marketing strategiyalarini ishlab chiqish zaruriyati paydo bo'lmoqda.

Xalqaro amaliyotda hozirgi vaqtda korxonalarining ko'pchiligi o'z taraqqiyotining konsepsiyasini, strategiyasini hamda dasturini ishlab chiqishi zarurligi ta'kidlanadi. Har qanday korxonaning uzoq muddatli yutuqlari ishlab chiqilgan strategiyaga bog'liq bo'ladi. Agar korxonaning rivojlanish strategiyasi bo'lmasa u yoki bu xatoliklar bilan ishlab chiqilgan bo'lsa, bu hol korxonaga bozorda barqaror va mustahkam o'rin egallash uchun imkon bermaydi. Zamonaviy ilm-fan va amaliyot strategik rejalashtirish hamda boshqarishning katta tajribasiga ega, ammo ko'pgina strategiyalar haligacha tashqi va ichki muhitning o'zgaruvchan shart-sharoitlariga moslasha olmayapti. Bu hali hanuzgacha strategik boshqarishning barcha muammolari ham o'z yechimini topmaganligini ko'rsatadiki, bunday hol, birinchi navbatda, korxonaning rivojlanishi strategik barqarorligining mexanizmlarini ishlab chiqish bilan bog'liqligini ko'rsatmoqda<sup>2</sup>.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni - 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin yaratish hamda milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish<sup>3</sup>" alohida belgilangan. Ushbu vazifalarning samarali ijrosini ta'minlash korxonalarining milliy iqtisodiyotda qo'shimcha qiymat yaratish

<sup>1</sup> Jahon banki ma'lumotlari asosida tayyorlandi. Manba: <http://www.worldbank.org>.

<sup>2</sup> Nasimov B. Korxonalar faoliyatini strategik boshqarish samaradorligi. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2019 yil. Kaplan R.S., Norton D.P. Organizatsiya, oriyentirovannaya na strategiyu. Kak v novoybiznes-srede preuspevayut organizatsii, primenyayushkiye sbalansirovannuyu sistemuy pokazateley/per.sangl.M.: ZAO Olimp-Biznes. 2004-416 b.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022-2026 йилларга мўлжалланган янги ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сон Фармони. <https://lex.uz/docs/5841063>

vazifasini to‘laqonli bajarishida ularning boshqaruv faoliyatini zamonaviy strategiyalarni qo‘llash orqali rivojlantirish, korxonalarining amaldagi boshqaruv mexanizmlarini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish, ushbu yo‘nalishda ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va korxonalarining marketing strategiyalarini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida “strategiyalash” borasida kompleks ilmiy-tadqiqotlarning olib borilishi ushbu yo‘nalishdagi ustuvor vazifa va muammolarning ilmiy asoslangan yechimlarini topishga ximat qilishi mazkur tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi “2021-2025 yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 166-son, 2003 yil 19 apreldagi “Xususiylashtirilgan korxonalarni korporativ boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 189-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi “O‘zbekiston–2030 strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmoni shuningdek mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Marketing strategiyalari orqali korxonani samarali boshqarish, korxonalar faoliyati samaradorligini ta‘minlashda marketing strategiyalarni ishlab chiqish va ularning zarurligi kabi masalalar F.Kotler, F.Taylor, G.Armstrong, M.E.Porter, P.F.Drucker, H.Fayol, M.A.Schilling, W. O.Walker, J.Mullins, S.Ellis, M.Brown, S.Godin R.S.Kaplan, D.P.Norton, I.Ansoff, M.Porter, L. A.Kravchenko, P.D.Kuznetsov, V.L.Kvint<sup>4</sup> va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida tavsiflangan.

---

<sup>4</sup> Kotler, F., & Armstrong, G. (2017). *Marketing Management* (15th ed.). Pearson Education, p-720. Taylor, F. W. (1911). *The Principles of Scientific Management*. Harper & Row. Qayta nashr 2006. 287 – bet. Porter, M. E. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. Free Press. P-993. Drucker, P. F. (2001). *Management Challenges for the 21st Century*. HarperBusiness. P-288. Henri Fayol “General and Industrial Management” (1916). Qayta nashr 2015. 148 – bet. Melissa A. Schillingning “Strategic Management of Technological Innovation” (2019) p- 368. Orville Walker, John Mullins. "Marketing Strategy: A Decision-Focused Approach", 2021. P-393. Philip Kotler, Hermawan Kartajaya, Iwan Setiawan. “Marketing 4.0: Moving from Traditional to Digital”. 2016. P-208. Seth Godin. “This Is Marketing: You Can’t Be Seen Until You Learn to See” (2019). P-288. Kaplan R.S., Norton D.P. Organizatsiya, oriyentirovannaya na strategiyu. Kak v novoybiznes-srede preuspevayut organizatsii, primenyayushiye sbalansirovannuyu sistemu pokazateley/per.sangl.M.: ZAO Olimp-Biznes. 2004-416 b.; Ansoff I. Strategicheskoye upravleniye. – M.: Ekonomika, 1989. – 358 s.; Porter M. Mejdunarodnaya konkurensiya: Per. s angl./ Pod.red. V.D. Shetina. – M. Mejdunarodnie otnosheniya, 1993. – 64 b; Kravchenko L. A., Kuznetsov P. D. Marketingovaya strategiya kak instrument povisheniya effektivnosti deyatelnosti predpriyatiya. Uchenie zapiski Krimskogo federalnogo universiteta imeni V. I. Vernadskogo. Ekonomika i upravleniye. Tom 2 (68). 2016 g. № 4. S. 63–69. Kvint V.L. Strategiyalash nazariyasi va amaliyoti [Tekst]: daydjest. / V.L.Kvint.-Toshkent:Tasvir, 2018.- 160 b.

MDH olimlari P.Doyil, A.I.Kovalev, V.V.Voylenko, P.E.Golubkov, va boshqalar tomonidan ham marketing strategiyalari orqali korxonani samarali boshqarish masalalariga doir tadqiqotlar olib borilgan.

Mahalliy iqtisodchi - olimlar va mutaxassislar Sh.J.Ergashxodjayeva, M.A.Ikramov, S.To‘raqulov, A.Rasulov, B.Saidov, S.Akilov, R.S.Muratov, I.A.Djalolova, S.Sh.Oripov, I.O.Ulashev, Sh.A.Atamuradov, G.Sh.Xonkeldiyeva, R.R.Abduraupov, B.V.Nasimov<sup>5</sup> va boshqalarning ilmiy izlanishlarida korxonlar faoliyatini samarali boshqarish, marketing strategiyalarini ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanish, korxonalarning bosharuvini tashkillashtirishda marketing strategiyalaridan foydalanish kabi jihatlar o‘rganilgan. Lekin, zamoanviy marketing strategiyalari orqali korxonalarning boshqaruv faoliyatini takomillshatirishda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish, korxonalarning tarmoq va sohaviy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda zamonaviy tendensiyalar asosida marketing strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyatlari borasida alohida ilmiy-tadqiqotlari olib o‘rganilmaganligi mazkur sohada ilmiy-tadqiqotlar olib borish, ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zarurligini anglatadi.

**Disertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat agrar universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** zamonaviy marketing strategiyalari orqali korxonani samarali boshqarish yo‘nalishlari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

zamonaviy marketing strategiyalari orqali korxonani samarali boshqarishning ilmiy-nazariy va uslubiy asoslarini tadqiq etish;

korxonani samarali boshqarishda zamonaviy marketing strategiyalaridan foydalanishning zarurati va ahamiyati ilmiy asoslash;

korxonani samarali boshqarishda zamonaviy marketing strategiyalaridan foydalanishning zarurati va ahamiyatini o‘rganish;

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining rivojlanish tendensiyalarini baholash;

korxonalarni samarali boshqarishga ta’sir etuvchi omillar tahlili asosida mualliflik yondashuvlarini ishlab chiqish;

korxonani “Pull” va “Push” zamonaviy marketing strategiyalari orqali samarali boshqarishning xorij tajribalarini tadqiq qilish;

---

<sup>5</sup> Sh.Ergashxodjayeva. “Marketing” darsligi. 2018-yil. “Iqtisodiyot” nashriyoti. 320 bet. To‘raqulov S. “Marketing” darslik. “Iqtisodiyot”. 2014. 384-bet. Rasulov A. “Marketing: nazariya va amaliyot” darslik. 2011-yil. “Iqtisodiyot”. 312 bet. Saidov B. “Marketing asoslari” darslik. “Iqtisodiyot”. 2010. 380 bet. Akilov S. “Marketing” darslik. “Iqtisodiyot”. 2013. 336 bet. Ahmedov O. “Marketing” darslik. Akademiya. 2011. 347 bet. Muratov R.S., Djalolova I.A., Oripov S.Sh. Korxonalar iqtisodiyoti. Darslik– Toshkent, 2014- 35-b. 6. Ulashev I.O., Atamuradov Sh.A. Korxonalar iqtisodiyoti va menejmenti. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2013, 24-b. 7.; Xonkeldiyeva G.Sh. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korporatsiyalarni boshqarishning ilmiy-metodologik asoslari. Iqt.fanlari doktori ilm.daraj. olish uchun yozilgan diss. avtoref.-Toshkent, 2018-71 b.; Abduraupov R.R. O‘zbekistonda xorijiy investitsiyali korxonalar iqtisodiy salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish. Iqt.fanlari doktori ilm.daraj. olish uchun yozilgan diss. avtoref.Toshkent, 2017 y.-70 b.; Nasimov B. Korxonalar faoliyatini strategik boshqarish samaradorligi. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2019 yil.

korxonani boshqarishda zamonaviy marketing strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

korxonani samarali boshqarishda o'zaro munosabatlar marketingi strategiyasidan foydalanishni ilmiy-nazariy jihatdan asoslash;

korxonani boshqarishda zamonaviy marketing strategiyalaridan foydalanishga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik modellashtirish va prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida to'qimachilik korxonalari boshqaruv faoliyati olingan.

**Tadqiqotning predmetini** zamonaviy marketing strategiyalari orqali korxonani samarali boshqarish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar bo'lib hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, omilli tahlil, SWOT tahlil, so'rov, tanlanma kuzatuv, grafik talqin, tizimli tahlil, matematik-ekonometrik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

korxonani samarali boshqarishga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar ta'sirini baholashda uzoq muddatli hamkorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan o'zaro munosabatlar marketingi strategiyasini ishonch ( $I = 0,22 - 0,35$ ), sodiqlik ( $S = 0,15 - 0,28$ ) va qiymatni oshirish ( $QO = 0,32 - 0,37$ ) elementlari o'rtasidagi maqbul nisbatni ta'minlash asosida takomillashtirish orqali foydalanish taklifi ishlab chiqilgan;

to'qimachilik korxonalari faoliyati davrida marketing strategik rejalarining amalga oshganligi, foyda va xarajatlar darajasining nazoratga olinganligi holatlari orqali boshqaruv samaradorligini baholashni yuqori samaradorlik (ideal ko'rsatkich) ("yuqori" – 0,75 – 1,0), o'rtacha darajagi barqarorlik ("qoniqarli" – 0,5 – 0,74), past daraja, muammoli holat ("qoniqarsiz" – 0,1 – 0,49) mezonlaridan foydalanish orqali takomillashtirilgan;

"O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalarda marketing faoliyatini tashkil etish va boshqarish funksiyalarini amalga oshiruvchi tashkiliy bo'limlar faoliyatini mazkur yo'nalishdagi metodologik va amaliy jihatlarini taqqoslama baholash orqali aniqlangan yuqori ijobiy natijalarni tatbiq etishdan iborat "tovar assortimenti guruhlari", "bozor segmentlari" hamda "hududiy segmentlar" bo'yicha kombinatsiyalangan shaklda tuzish asosida takomillashtirish taklifi asoslangan;

"O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalarining yangi bozorlarga chiqish imkoniyatlariga ta'sir etuvchi omillarning ta'sirini ekonometrik modellashtirish asosida 2030 yilga qadar mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishning prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

korxonalarda marketing faoliyatini tashkil etish va boshqarish funksiyalarini amalga oshiruvchi tashkiliy bo'limlar faoliyatini mazkur yo'nalishdagi metodologik va amaliy jihatlarini taqqoslama baholash orqali aniqlangan yuqori ijobiy natijalarni tatbiq etishdan iborat "tovar assortimenti guruhlari bo'yicha",

“bozorning segment me’zonlari bo’yicha” hamda “hududiy segmentlar bo’yicha” kombinatsiyalangan tushunchalarning mazmuni va mohiyati ochib berilgan;

korxonalarda ishonch, sodiqlik va qiymatni oshirish orqali uzoq muddatli hamkorlikni ta’minlashga yo’naltirilgan o’zaro munosabatlar marketingi strategiyasining zaruriyati asoslangan;

korxonani “Pull” va “Push” zamonaviy marketing strategiyalari orqali samarali boshqarishning xorij tajribasidan O‘zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari asoslangan;

zamonaviy marketing strategiyalari orqali korxonalarni boshqarishning yangicha mazmuni ishlab chiqilgan;

O‘zbekistonda zamonaviy marketing strategiyalari orqali korxonalarni boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalari ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari ishonchliligi ilg‘or xorij tajribalarini o‘rganish va umumlashtirish, qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, tadqiqot jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika Qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi, xalqaro moliya institutlarining rasmiy ma’lumotlari va hisobotlaridan foydalanilganligi, mualliflik taklif va tavsiyalarning O‘zbekiston Respublikasi “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi amaliyotida joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mamlakatimizda zamonaviy marketing strategiyalari orqali korxonani samarali boshqarishni takomillashtirishga bag‘ishlangan maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda va korxonalarni qo‘llaab quvvatlash tizimida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan to‘qimachilik korxonalarini raqobatbardosh bo‘lishi uchun o‘zining marketing strategiyasini ishlab chiqishga yordam beradi hamda raqobat sharoitida uni baholash imkoniyatini yaratadi. Tadqiqot natijalaridan “Menejment”, “Strategik marketing”, “Marketing tadqiqotlari”, “Menejment, marketingi” fanlaridan darslik va o‘quv qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Zamonaviy marketing strategiyalari orqali korxonalarni samarali boshqarish borasida ishlab chiqilgan takliflar asosida:

korxonani samarali boshqarishga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar ta’sirini baholashda uzoq muddatli hamkorlikni ta’minlashga yo’naltirilgan o’zaro munosabatlar marketingi strategiyasini ishonch ( $I = 0,22 - 0,35$ ), sodiqlik ( $S = 0,15 - 0,28$ ) va qiymatni oshirish ( $QO = 0,32 - 0,37$ ) elementlari o‘rtasidagi maqbul nisbatni ta’minlash asosida takomillashtirish orqali foydalanish taklifi uyushma tarkibidagi to‘qimachilik korxonalarini faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2024 yil 17 dekabrda №03/25-3414-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida to‘qimachilik korxonalarining ishlab chiqarish xarajatlari 1,18 foizga kamayishiga erishilgan;

to‘qimachilik korxonalari faoliyati davrida marketing strategik rejalarining amalga oshganligi, foyda va xarajatlar darajasining nazoratga olinganligi holatlari orqali boshqaruv samaradorligini baholashni yuqori samaradorlik (ideal ko‘rsatkich) (“yuqori” – 0,75 – 1,0), o‘rtacha darajagi barqarorlik (“qoniqarli” – 0,5 – 0,74), past daraja, muammoli holat (“qoniqarsiz” – 0,1 – 0,49) mezonlaridan foydalanish orqali takomillashtirish taklifi uyushma tarkibidagi to‘qimachilik korxonalari faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi “O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasining 2024 yil 17 dekabrda №03/25-3414-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida to‘qimachilik korxonalarining boshqaruv xarajatlari 2024 yilda 2023 yilga nisbatan 5,4 % ga kamaygan;

“O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi tarkibidagi korxonalarda marketing faoliyatini tashkil etish va boshqarish funksiyalarini amalga oshiruvchi tashkiliy bo‘limlar faoliyatini mazkur yo‘nalishdagi metodologik va amaliy jihatlarini taqqoslama baholash orqali aniqlangan yuqori ijobiy natijalarni tadbiiq etishdan iborat “tovar assortimenti guruhlari”, “bozor segmentlari” hamda “hududiy segmentlar” bo‘yicha kombinatsiyalangan shaklda tuzish asosida takomillashtirish taklifi uyushma tarkibidagi to‘qimachilik korxonalari faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi “O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasining 2024 yil 17 dekabrda №03/25-3414-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida to‘qimachilik korxonalarining bozorning yangi segmentlariga kirib borishga va mahsulot sotish hajmi 2024 yilda 2023 yilga nisbatan o‘rtacha 5,6 foizga oshishi ta‘minlangan;

“O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi tarkibidagi korxonalarining yangi bozorlarga chiqish imkoniyatlariga ta‘sir etuvchi omillarning ta‘sirini ekonometrik modellashtirish asosida 2030 yilga qadar ishlab chiqilgan mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishning prognoz ko‘rsatkichlari uyushma tarkibidagi korxonalarni rivojlantirish bo‘yicha hududiy dasturlarni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi “O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasining 2024 yil 17 dekabrda №03/25-3414-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida to‘qimachilik korxonalar faoliyati, asosiy ko‘rsatkichlarini uzoq muddatli istiqbolda o‘zaro muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 respublika va 8 xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida ma‘ruza qilingan va aprobatyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya ishi mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola (2 tasi mahalliy va 3 tasi xorijiy jurnallarda), xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plamlarida 7 ta ma‘ruza tezislari chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi tarkiban kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 152 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning ilmiy ishlar rejaları bilan aloqadorligi aniqlangan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, ilmiy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati keltirilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiqi, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Zamonaviy marketing strategiyalari orqali korxonani samarali boshqarishning ilmiy-nazariy va tashkiliy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida zamonaviy marketing strategiyalari, ularning mazmun-mohiyati va ilmiy-nazariy asoslari o‘rganilgan, korxonalarni samarali boshqarishning ilmiy-nazariy va tashkiliy jihatlari tadqiq etilgan, korxonani samarali boshqarishda zamonaviy marketing strategiyalaridan foydalanishning zarurati va ahamiyati tavsiflangan.

Bugungi globallasuv sharoitida zamonaviy marketing strategiyalari orqali korxonani samarali boshqarish masalasi kun tartibidagi dolzarb masalalardan biriga aylanib ulgurdi. Shu nuqtai nazardan qaraganda avvalom bor zamonaviy marketing strategiyalarini mazmun-mohiyatini tadqiq etish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Marketing strategiyasi — bu tashkilotning bozor ulushini oshirish, maqsadli auditoriyani jalb qilish, raqobatchilarni ortda qoldirish va uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta‘minlash maqsadida ishlab chiqqan umumiy reja va yondashuvdir.

Zamonaviy marketing strategiyasi - bu korxonaning raqobatbardoshligini ta‘minlash, mijozlarning ehtiyojlarini qondirish va ularga qiymat taklif qilish uchun bozorni chuqur tahlil qilish, innovatsiyalarni amalga oshirish va raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash orqali ishlab chiqilgan uzoq muddatli, moslashuvchan va dinamik reja.



**1-rasm. Zamonaviy marketing strategiyalari<sup>6</sup>**

<sup>6</sup> Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Bozorlar o'zgaruvchanligi va shiddatli raqobatning amal qilishi, iste'molchilar talabining ortib borishi ko'plab korxonalarni strategik maqsadlaridan kelib chiqib samarali boshqarishni zaruriyatga aylantirmoqda. Bugungi kunda iqtisodiy adabiyotlarda zamonaviy marketing strategiyalari turlicha talqin etilmoqda, sababi bozorlar o'zgaruvchanligi, raqobatning kuchayib borishi, innovatsion texnologiyalarining takomillashib borishi, istemolchilar talablarining ortib borishi kabilardir (1-rasm).

Iqtisodchi olimlar turli xil nazariyalar va metodologiyalar asosida korxonalarni boshqarishning ilmiy usullarini ishlab chiqishgan. Bu borada, Henry Mintzberg strategik boshqaruv sohasida olib borgan tadqiqotlari va nazariy ishlari, korxonalar boshqaruvining turli usullari va ularning samaradorligiga yordam beradi. Mintzbergning "strategiyalarni shakllantirish va amalga oshirish"ga<sup>7</sup> doir tadqiqotlariga ko'ra, strategik boshqaruv jarayoni faqat aniq va uzoq muddatli rejalarni ishlab chiqishni emas, balki hamda muayyan va o'zgaruvchan shart-sharoitlar, muammolarga reaksiya berish va ularga tezkor javob berishni talab etadi. Buning uchun, korxonalar uzoq va qisqa muddatli strategik maqsadlarni belgilashda, o'zaro bog'liq bo'lgan makro va mikro iqtisodiy omillarni hisobga olishlari lozim.

Shuningdek, Peter Drucker menejment ilmining yirik namoyondalaridan biri sifatida, boshqaruvni "muddatlar, resurslar va maqsadlarning muvofiqligi" tarzda talqin etadi<sup>8</sup>. Drukerning fikricha, samarali boshqarish korxonaning ichki tizimiga, ishlab chiqarish va marketing jarayonlarining to'g'ri integratsiyasiga, shuningdek, xodimlar bilan samarali ishlashga bog'liq hisoblanadi. Uning "menejment va ijtimoiy mas'uliyat" (Management and social responsibility) nomli kitobida, boshqaruvning inson resurslariga va jamoa mehnat faoliyatiga muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.



## 2-rasm. Korxonani boshqarish strategiyasining xususiyatlari <sup>9</sup>

Tadqiqotlarimizga ko'ra korxonalarni samarali boshqarishning ilmiy-nazariy va tashkiliy jihatlari, yuqorida ta'kidlanganidek, marketing strategiyalarining har

<sup>7</sup> Henry Mintzberg. "Strategy Safari: A Guided Tour Through The Wilds of Strategic Management". Free Press. New York. 1998. P. 154-160.

<sup>8</sup> Peter Drucker. "The Practice of Management". Harper & Row. New York. 1954. P. 67-72.

<sup>9</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

tomonlama nazariy va amaliy asoslarini o'z ichiga oladi. Iqtisodiy adabiyotlarda ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlar va tavsiyalar bilan, korxonalar boshqaruvi va marketingning samarali tashkil etilishini ta'minlaydigan tizimlarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratmoqda. Buning natijasida, zamonaviy marketing strategiyalari orqali korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirish imkonini beradi.

**“Korxonalar zamonaviy marketing strategiyalari orqali samarali boshqarish tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida

O'zbekiston to'qimachilik sanoatining rivojlanish tendensiyalarini baxolash yondashuvlar tavsiflangan. To'qimachilik korxonalarida strategik boshqaruv holati tahlili va muammolari tahlili keltirilgan. Shuningdek mazkur bobda korxonalar zamonaviy marketing strategiyalari orqali samarali boshqarish xorij tajribalari tadqiq etilgan.

Mustaqillik yillarida to'qimachilik sanoati O'zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylangan. Xususan, 2010-yilda mazkur tarmoqda 4 845,5 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 71 509,8 milliard so'mga yetgan. 2023-yilda yalpi ichki mahsulotdagi (YAIM) hissasi 4,4 foizni, jami sanoat mahsulotidagi ulushi 14,3 foizni (kiyim ishlab chiqarish bilan birgalikda), ishlab chiqaruvchi sanoat tarkibidagi ulushi esa 17,0 foizni tashkil etgan (kiyim ishlab chiqarish bilan birgalikda) (1-jadval).

**1-jadval**

**O'zbekiston Respublikasida to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish<sup>10</sup>**


Ko'rsatkichlar	2010 yil	2015 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil
Sanoat mahsuloti hajmi, milliard so'm	38119,0	97598,2	368740,2	456056,1	553265,0	658991,7
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, milliard so'm	4845,5	13241,7	36713,9	52372,3	62850,7	71509,8
Kiyim ishlab chiqarish, milliard so'm	575,8	1585,3	10402,4	13592,8	17264,8	23087,8

To'qimachilik sanoati boshqa tarmoqlarga nisbatan 2010-2023-yillardagi o'rtacha o'sish tendensiyalarini saqlab qolgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ushbu davr mobaynida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yillik o'rtacha o'sish sur'ati 5,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 9,6 foizga, kiyim ishlab chiqarish esa 11,8 foizga yetgan. Bu esa tarmoqning iqtisodiyotda yetakchi o'rin egallab borayotganidan dalolat beradi.

Respublikada yetishtirilgan paxta tolasini qayta ishlovchi korxonalar quvvatlari ham sezilarli darajada ortgan. 2010-yilda ushbu ko'rsatkich 270 ming tonnani, ya'ni bor-yo'g'i 27 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2017-2019-yillarda mahalliy to'qimachilik korxonalarining zamonaviy texnologik uskunalar bilan jihozlanishi va raqamlashtirish jarayonlarining keng joriy etilishi natijasida paxta tolasini qayta ishlash hajmi 801,3 ming tonnaga yetkazilib, 2010-yilga nisbatan 3,2 barobarga oshgan va umumiy qayta ishlash darajasi 80 foizga yetgan. 2021-yilda

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

esa ushbu quvvatlar 1 003 ming tonnaga yetkazilib, mamlakatda yetishtirilayotgan paxta tolasini 100 foiz qayta ishlash imkoniyati yaratilgan (4-rasm).



#### 4-rasm. O‘zbekiston Respublikasida paxta tolasini qayta ishlash darajasi<sup>11</sup>

Paxta tolasini qayta ishlash darajasining to‘liq o‘zlashtirilishi bilan birga, to‘qimachilik sanoatida amalga oshirilayotgan rivojlanish strategiyalarining keyingi bosqichlari tarmoqda maqsadli xomashyo bazasini yaratishga yo‘naltirilgan. Shu munosabat bilan sun‘iy tolalarga asoslangan to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish O‘zbekiston sanoati uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat mahsulot diversifikatsiyasini ta‘minlash, balki xalqaro bozor talablariga mos mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Korxonalarining strategik boshqaruv faoliyati samaradorligini moliyaviy natijalar orqali baholashda quyidagilarga ahamiyat qaratiladi: foyda, likvidlik, rentabellik, xarajatlar tuzilishi.

Moliyaviy koeffitsiyentlar (rentabellik, likvidlik, faoliyat samarasi) boshqaruv qarorlari samaradorligini tahlil qilish uchun aniq va universal instrument sifatida xizmat qiladi.

Moliyaviy natijalar – har qanday strategiyaning yakuniy samaradorlik ko‘rsatkichi. BSC konsepsiyasida moliyaviy blokda quyidagilar baholanadi:

- Daromad va foyda o‘sishi
- Xarajatlar va budjet samaradorligi
- Investitsiyadan foyda

Balanced Scorecard (BSC) — bu tashkilotlar faoliyatini har tomonlama (balanslangan) baholash va strategik boshqarishda qo‘llaniladigan kompleks tizim bo‘lib, 1992 yilda Robert Kaplan va David Norton tomonidan ishlab chiqilgan<sup>12</sup>.

Taklif etilgan indikatorlar orqali korxonaning faoliyat davrida qanday boshqarilgani – strategik rejalar amalga oshganmi, foyda qay darajada ta‘minlangan, xarajatlar qay darajada nazoratga olinganlik holatlarini tahlil qilish imkoniyatini beradi, barcha indikatorlar hisobga olingan holda strategik boshqaruv holatiga to‘liq va tizimli baho berish uchun quyidagi me‘zonalardan foydalanish taklif etiladi:

<sup>11</sup> “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

<sup>12</sup> Kaplan R. S., Norton D. P. Balanced Scorecard Success: The Kaplan-Norton Collection (4 Books). – Harvard Business Review Press, 2015.

Yuqori samaradorlik (ideal ko'rsatkich) – “Yuqori”

O'rtacha daraja, barqarorlik – “Qoniqarli”

Past daraja, muammoli holat – “Qoniqarsiz”

Yuqoridagi metodologik yondashuvlardan foydalangan holda 3 ta to'qimachilik korxonalarining boshqaruv faoliyati samaradorligini tahlilini korxonalarining moliyaviy faoliyat bo'yicha natijalari asosida hisoblab topish imkoni mavjud. Tahlil uchun quyidagi korxonalar tanlangan:

“DAVR DIZAYN SANOAT” mas'uliyati cheklangan jamiyati (MCHJ) - bu to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati sohasida faoliyat yurituvchi xususiy korxonaga bo'lib, 2017 yil 18 yanvarda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. Korxonaga Namangan viloyati, Yangi Namangan tumani, Kamalak ko'chasi, 2-uy manzilida joylashgan. Korxonaga quyidagi asosiy yo'nalishda ish olib boradi: OKED 14130 - Boshqa tashqi kiyimlar ishlab chiqarish (tikuvchilik sanoati). Uning yuridik shakli - mas'uliyati cheklangan jamiyat (MCHJ) bo'lib, OPF kodi 152 - bu uning yuridik shaxs sifatida alohida mas'uliyatga ega ekanligini bildiradi. Korxonaga SOOGU kodi 08184 bo'yicha to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar uyushmasiga mansub. Korxonaga ustav fondi 210 million so'mni tashkil etadi. Bu, xususan, kichik biznes subyekti sifatida korxonaga iqtisodiy faoliyat yuritishda muayyan moliyaviy imkoniyatlarga egaligini anglatadi. “DAVR DIZAYN SANOAT” MCHJ - to'qimachilik sanoatida faoliyat yurituvchi va asosiy diqqatini tashqi kiyimlar ishlab chiqarishga qaratgan kichik xususiy korxonadir. Uning faoliyat darajasi barqaror deb baholangan bo'lib, u rivojlanish salohiyatiga ega.

“SAODAT SANOAT SERVIS” mas'uliyati cheklangan jamiyati - bu to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati sohasida ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi xususiy korxonaga bo'lib, 2014 yil 30 sentabrda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. Korxonaga faoliyat yo'nalishi: OKED 14130 – Boshqa tashqi kiyimlar ishlab chiqarish. Bu yo'nalish to'qimachilik sanoatining muhim segmenti bo'lib, asosan kiyim-kechak ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotishni o'z ichiga oladi. Tashkiliy-huquqiy shakli: OPF kodi 152 – MCHJ (mas'uliyati cheklangan jamiyat). SOOGU kodi 08184 – To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalar uyushmasi a'zosi hisoblanadi. Korxonaga ustav fondi 180 million so'mni tashkil etadi. Bu mablag' korxonaning o'z faoliyatini amalga oshirishda yetarli moliyaviy asosga egaligini bildiradi.

“HOLIS TEKSTIL GROUP” mas'uliyati cheklangan jamiyati - bu xo'jalik-maishiy va sanitar-gigiyenik maqsadlardagi qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan xususiy korxonaga bo'lib, 2018 yil 29 mayda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. Korxonaga faoliyat yo'nalishi: OKED 17220 - Xo'jalik-maishiy va sanitar-gigiyenik qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish. Bu to'qimachilik va sanitariya sohalarida strategik ahamiyatga ega bo'lgan segmentdir (masalan: qog'oz salftka, salftkalar, tualet qog'ozi va hokazo). Tashkiliy-huquqiy shakli: OPF kodi 152 – MCHJ (mas'uliyati cheklangan jamiyat). SOOGU kodi 79994 – Davlat ulushi mavjud bo'lmagan, iqtisodiy boshqaruv huquqiga ega xo'jalik subyektlari. Korxonaga ustav fondi 2,15 mlrd so'mni tashkil etadi. Bu juda yuqori

miqdor hisoblanadi va korxonaning katta masshtabda faoliyat yuritish salohiyatini ko'rsatadi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha indikatorlar hisobga olingan holda korxonalarining strategik boshqaruv holatiga to'liq va tizimli baho berish uchun moliyaviy faoliyat natijalari 1-3 ilovalardagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

“DAVR DIZAYN SANOAT” MCHJning strategik boshqaruv holatini tahlili 1-ilovada keltirilgan ma'lumotlar asosida hisoblangan natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

## 2-jadval

### “DAVR DIZAYN SANOAT” MCHJning strategik boshqaruv holatini tahlili<sup>13</sup>

Indikatorlar	hisoblash	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
Sof foyda marjasi	$270 / 010 \times 100$	0,00	0,00	11,50	1,60
Yalpi foyda marjasi	$030 / 010 \times 100$	57,00	0,00	14,39	4,05
Operatsion foyda marjasi	$100 / 010 \times 100$	0,00	0,00	10,61	1,80
Foydadan oldingi marja	$240 / 010 \times 100$	0,00	0,00	11,69	1,73
Foyda solig'i ulushi	$250 / 240 \times 100$	0,00	0,00	1,67	7,52
Davr xarajatlari ulushi	$040 / 010 \times 100$	13132,00	0,00	3,77	3,12
Asosiy daromadlar ulushi	$090 / 010 \times 100$	0,00	0,00	0,00	0,87
Tannarx ulushi	$020 / 010 \times 100$	43,00	0,00	85,61	95,95
Davr xarajatlari ulushi	$040 / 010 \times 100$	13132,00	0,00	3,77	3,12
Ma'muriy xarajatlar ulushi	$060 / 010 \times 100$	12560,00	0,00	2,82	1,24
Operatsion xarajatlar ulushi	$070 / 010 \times 100$	572,00	0,00	0,00	1,02
Moliyaviy xarajatlar ulushi	$170 / 010 \times 100$	0,00	0,00	1,83	1,54
Moliyaviy daromadlar ulushi	$110 / 010 \times 100$	0,00	0,00	2,92	1,46
Moliyaviy faoliyat balansi	110 – 170	0,00	0,00	10028,97	-4051,00
Valyuta xatarlari ulushi	$200 / 010 \times 100$	0,00	0,00	1,83	1,54

“DAVR DIZAYN SANOAT” MCHJning strategik boshqaruv holatini tahlili natijalaridan quyidagilarni kuzatish mumkin. Moliyaviy boshqaruv samaradorligi natijalaiga ko'ra sof foyda marjasi 2021 va 2022 yillarda mavjud emas, 2023 yilda 11.5% - qoniqarli bo'lib, 2024 yilda 1.60% ni tashkil etgan va yuqori pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Yalpi foyda marjasi 2023 yilda 14.39%, 2024 yilda 4.05%ni tashkil etgan. Bu ishlab chiqarish xarajatlarining kattaligi yoki sotuv narxining pastligini anglatadi. Operatsion foyda marjasi 2023 yilda 10.61%, 2024 yilda 1.80%ni tashkil etib, 2023 yilda yaxshi natija bo'lgan, ammo 2024 yilda pasaygan. Foydadan oldingi marja 2023 yilda 11.69 foizni, 2024 yilda 1.73%ni tashkil etgan. Soliqlar va moliyaviy xarajatlar hisobga olingan holda ham keskin tushish kuzatilgan. Foyda solig'i ulushi 2024 yilda 7.52%ni tashkil etib, soliq yuki o'rta darajasi kuzatilgan.

Moliyaviy xarajatlar ulushi 2023 yilda 1.83 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda 1.54% bo'lib, qabul qilinadigan darajadada bo'lgan. Korxonada ichki jarayonlarni optimallashtirishga e'tibor qaratgan, lekin tannarxni pasaytirish bo'yicha strategik choralar yetarli e'tibor qaratilmagan.

Korxonada investitsiya va moliyaviy daromadlar bo'yicha ish olib borilgan, ammo 2024 yilda xato qarorlar tufayli zararga uchragan.

<sup>13</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

Tahlil natijalariga ko‘ra ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilib, tannarxni pasaytirish bo‘yicha strategiya ishlab chiqish, bunda avtomatlashtirish, xomashyoni qayta ko‘rib chiqish talab etiladi. Foyda marjasi va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash uchun xarajatlar tuzilishi qayta ko‘rib chiqilishi kerak. Moliyaviy faoliyatni tahlil qilish va investitsiya strategiyasini qayta ishlash 2024 yildagi zarar takrorlanmasligi kerak, aks xolda korxonaning 3 yillik faoliyati natijalari asosida qayta tashkil etishga olib kelishi mumkin. Daromadlarni diversifikatsiya qilish – yangi xizmatlar yoki qo‘shimcha mahsulotlar orqali bunga erishish talab etiladi.

“SAODAT SANOAT SERVIS” MCHJning strategik boshqaruv holatini tahlili 2-ilovada keltirilgan ma‘lumotlar asosida hisoblangan natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

**3-jadval**

**“SAODAT SANOAT SERVIS” MCHJning strategik boshqaruv holatini tahlili<sup>14</sup>**

<b>Indikatorlar</b>	<b>hisoblash</b>	<b>2021 yil</b>	<b>2022 yil</b>	<b>2023 yil</b>	<b>2024 yil</b>
<b>Sof foyda marjasi</b>	$270 / 010 \times 100$	57,47	48,51	17,99	6,50
<b>Yalpi foyda marjasi</b>	$030 / 010 \times 100$	63,13	52,70	22,80	11,35
<b>Operatsion foyda marjasi</b>	$100 / 010 \times 100$	56,57	48,48	17,56	6,82
<b>Foydadan oldingi marja</b>	$240 / 010 \times 100$	59,56	48,60	18,13	6,61
<b>Foyda solig‘i ulushi</b>	$250 / 240 \times 100$	3,52	0,18	0,80	1,71
<b>Davr xarajatlari ulushi</b>	$040 / 010 \times 100$	6,56	4,21	5,25	5,28
<b>Asosiy daromadlar ulushi</b>	$090 / 010 \times 100$	0,00	0,00	0,00	0,75
<b>Tannarx ulushi</b>	$020 / 010 \times 100$	36,87	47,30	77,20	88,65
<b>Davr xarajatlari ulushi</b>	$040 / 010 \times 100$	6,56	4,21	5,25	5,28
<b>Ma‘muriy xarajatlar ulushi</b>	$060 / 010 \times 100$	4,38	4,21	2,82	1,46
<b>Operatsion xarajatlar ulushi</b>	$070 / 010 \times 100$	2,18	0,00	0,00	2,43
<b>Moliyaviy xarajatlar ulushi</b>	$170 / 010 \times 100$	12,27	1,48	0,84	0,88
<b>Moliyaviy daromadlar ulushi</b>	$110 / 010 \times 100$	15,26	1,59	1,42	0,67
<b>Moliyaviy faoliyat balansi</b>	110 – 170	39343,00	6907,00	153682,71	-117461,00
<b>Valyuta xatarlari ulushi</b>	$200 / 010 \times 100$	12,27	1,48	0,84	0,88

“SAODAT SANOAT SERVIS” MCHJning 2021–2024 yillardagi strategik boshqaruv holatini tahlil qilish natijalariga ko‘ra moliyaviy faoliyatni boshqaruv samaradorligi sof foyda marjasiga ko‘ra 2021 yilda 57.47%ni tashkil etib yuqori, samarali ekanligini aniqlandi. 2022 yilda esa 48.51%ni tashkil etib yuqori samaradorlik ta‘minlanishida davom etgan bo‘lsa, 2023 yilda 17.99% bo‘lib pasayish, barqarorlik zaiflashgan. 2024 yilda 6.50% foyda keskin tushgan. Yalpi foyda marjasi 2021 yilda 63.13%, 2022 yilda 52.70%, 2023 yilda 22.80%, 2024 yilda 11.35% bo‘lib, bu dinamika ishlab chiqarish xarajatlari ortib borganini anglatadi. Operatsion foyda marjasi 2021–2022 yillarda 48–56% darajada bo‘lib, yaxshi natijalar qayd etilgan bo‘lsa, 2023–2024 yillarda 17.56% → 6.82% - samara yuqori pasayish kuzatilgan. Foydadan oldingi marjasi esa 2021 yilda 59.56%, 2024: 6.61%ni tashkil etgan bo‘lib, soliq va moliyaviy xarajatlar ta‘siri katta bo‘lgan. Foyda solig‘i ulushi 2021 yilda 3.52%, keyingi yillarda past darajada

<sup>14</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

(2022 – 0.18%) kuzatilgan. 2021–2022 yillarda moliyaviy faoliyat ancha samarali bo‘lgan, 2023–2024 yillarda strategik foyda darajasi keskin pasaygan, bu esa strategik boshqaruv samarasizligini ko‘rsatadi.

Moliyaviy faoliyatda 2021–2023 yillarda faollik yuqori bo‘lgan, 2024 yilda yetarli nazorat qilinmagan. Bu korxonada investitsiya va valyuta risklari bilan bog‘liq strategik muammolar mavjudligini bildiradi.

#### 4-jadval

### “SAODAT SANOAT SERVIS” MCHJning strategik boshqaruv holatiga umumiy ba’ho

Yo‘nalish	2022	2023	2024	Izoh
Moliyaviy boshqaruv faoliyati	Yuqori samara	Pasayish	Keskin tushish	Foyda muvozanati yo‘q
Mijozlar bilash ishlash	0%	0%	0.75%	Qo‘shimcha daromad manbai kam
Ichki jarayonlarni boshqarish	Nazoratda	Pasayish	Tannarx yuqori	Samarasiz ishlab chiqarish
Rivojlanish va innovatsion faoliyati boshqarshi	Investitsiya bor	Barqaror	Qarz va yo‘qotish	Boshqaruv xatolari

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, “SAODAT SANOAT SERVIS” MCHJning strategik boshqaruv faoliyatini tashkomillashtirish uchun quyidagi tavsiyalar beriladi:

Ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilib, tannarxni tushirish bo‘yicha aniq choralar ishlab chiqish kerak, bunda asosiy e‘tiborni texnologik yangilanishga qaratish talab etiladi.

Foyda darajasini tiklash uchun mahsulot diversifikatsiyasi va sotuv kanallarini kengaytirish talab etiladi.

Moliyaviy boshqaruvda qat’iy tizim joriy etish lozim, sababi 2024 yildagi salbiy balansni aks ettirmoqda.

Korxonada qo‘shimcha xizmatlar, eksport yoki qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar orqali mijozlarga qaratilgan strategiyani samarali amalga oshirishi lozim.

“HOLIS TEKSTIL GROUP” MCHJning strategik boshqaruv holatini tahlili 3-ildavda keltirilgan ma’lumotlar asosida hisoblangan natijalari 5-jadvalda keltirilgan.

“HOLIS TEKSTIL GROUP” MCHJ strategik boshqaruv holatini moliyaviy boshqaruv faoliyati samaradorligi bo‘yicha sof foyda marjasi 2021 yilda 5.37%ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yilda 20.63% bo‘lib, yaxshilangan holatni aks ettirmoqda. Biroq, 2023–2024 yillarda mos ravishda 2.00%, 2.26% ni tashkil etib pasayish va barqarorsizlik holatiga tushgan. Yalpi foyda marjasi 2021 yilda 8.39%, 2022 yilda 23.57%, 2023–2024 yillarda mos ravishda 4.41% va 1.99%ni tashkil etilgan bo‘lib, ishlab chiqarish samaradorligi 2022 yilda yuqori, keyin keskin pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Operatsion foyda marjasi 2021 yilda 5.83%, 2022 yilda 21.30%, 2023 yilda 2.22%, 2024 yilda 2.57%ni tashkil etib, 2022 yilda faoliyat yuqori samarali bo‘lgan bo‘lsa keyinchalik samaraga erishmaganlik holati kuzatilgan. Foydadan oldingi marjasi tahlil qilinganda mos ravishda 5.72% → 21.09% → 2.35% → 2.66% ni tashkil etgan bo‘lib, moliyaviy ustuvorlik 2022

yilda yuqori bo‘lgan va yillar davomida pasayib borgan. Foyda solig‘i ulushi 2021 yilda 6.03% stabil holatda bo‘lgan bo‘lsa, 2024 yilda 15.00%ni 2024 yilda esa soliq yuki ortib borgan. 2022 yilda moliyaviy boshqaruv samarali bo‘lgan. 2023–2024 yillarda foyda va rentabellik darajalari pastlab, barqarorlik yo‘qolgan.

### 5-jadval

#### “HOLIS TEKSTIL GROUP” MCHJning strategik boshqaruv holatini tahlili<sup>15</sup>

Indikatorlar	hisoblash	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
Sof foyda marjasi	$270 / 010 \times 100$	5,37	20,63	2,00	2,26
Yalpi foyda marjasi	$030 / 010 \times 100$	8,39	23,57	4,41	1,99
Operatsion foyda marjasi	$100 / 010 \times 100$	5,83	21,30	2,22	2,57
Foydadan oldingi marja	$240 / 010 \times 100$	5,72	21,09	2,35	2,66
Foyda solig‘i ulushi	$250 / 240 \times 100$	6,03	2,20	0,00	15,00
Davr xarajatlari ulushi	$040 / 010 \times 100$	2,56	2,30	2,21	1,72
Asosiy daromadlar ulushi	$090 / 010 \times 100$	0,00	0,03	0,01	2,30
Tannarx ulushi	$020 / 010 \times 100$	91,61	76,43	95,59	98,01
Davr xarajatlari ulushi	$040 / 010 \times 100$	2,56	2,30	2,21	1,72
Ma‘muriy xarajatlar ulushi	$060 / 010 \times 100$	2,56	0,13	0,96	0,42
Operatsion xarajatlar ulushi	$070 / 010 \times 100$	0,00	1,85	0,81	1,09
Moliyaviy xarajatlar ulushi	$170 / 010 \times 100$	4,27	0,21	2,63	0,72
Moliyaviy daromadlar ulushi	$110 / 010 \times 100$	4,15	0,00	2,76	0,81
Moliyaviy faoliyat balansi	110 – 170	-1453,00	-23655,00	14025,89	8387,00
Valyuta xatarlari ulushi	$200 / 010 \times 100$	4,27	0,21	2,63	0,72

Bilamizki, bugungi kunda har bir mamlakat o‘ziga xos marketing uslublarini ishlab chiqish orqali raqobatbardoshligini oshirishga erishmoqda.

O‘zbekiston korxonalari xorijiy tajribalarni o‘rganib, o‘z marketing strategiyalarini yanada samarali boshqarishi va raqobatbardoshligini oshirishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.



5-rasm. Marketing strategiyalarining qo‘llanilish bosqichlari<sup>16</sup>

<sup>15</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>16</sup> Muallif ishlanmasi

Korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda xorijiy tajribalar va zamonaviy marketing yondashuvlaridan foydalanish, har bir korxonaning muvaffaqiyatli rivojlanishiga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Zamonaviy marketing strategiyalari orqali korxonani samarali boshqarish yo‘nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida korxonalarini zamonaviy marketing strategiyalari orqali boshqarish bo‘yicha takliflar berilgan. Korxonani samarali boshqarishda o‘zaro munosabatlar marketingi strategiyasidan foydalanish taklif etilgan. O‘zbekistonda to‘qimachilik korxonalarini rivojlanishining prognoz ko‘rsatkichlari hisoblangan.

